

SHTANGENSIRKULDA O`LCHASHNI O`RGANISH

Rahimova Volida Karim qizi
Buxoro davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya: Shtangensirkul juda ko`p sohalarda ishlaydigan mutaxassislarning asosiy ish qurollaridan biridir. Shu bilan birgalikda shtangensirkulda ishlashni ilk boshlashda inson yetarlicha qiyinchilikka uchraydi. Bu kabi muammolarni bartaraf etish maqsadida ushbu maqolamda shtangensirkulda ishlashni soddaroq qilib yoritishga harakat qildim.

Kalit so`zlar: Shtangensirkul, nonius, qattiq jism, zichlik, XBS, geometrik shakllar, hajm, massa, uzunlik.

ASOSIY QISM


Jismlarning chiziqli o'lchamlarini o'lhash uchun odatda biz chiziqli o'lchov asboblaridan (ma'lum masshtabda darajalangan shkalali asboblardan), chunonchi shtangentsirkul, mikrometr va analitik tarozidan foydalanamiz. Bu o'lchov asboblarining asosiy qismi ulardagi ma'lum masshtabda darajalangan shkala va noniuslar hisoblanadi. Hamma vaqt ham shkala jismning chiziqli o'lchamlari (uzunligi, eni, chuqurligi, balandligi) ni aniq o'lhash uchun qo'l kelavermaydi. Shuning uchun jismning o'lchab bo'lmaydigan chiziqli qismini aniq o'lhashga imkon beradigan moslama – n o n i u s d a n foydalilanadi.

Nonius deb, asosiy shkalaning o'lhash aniqligini oshirishga imkon beradigan, asbobning qo'zg'aluvchan qismiga o'rnatilgan va asosiy shkala bo'ylab harakatlanadigan shkalali moslamaga aytildi.

Shtangentsirkul - chiziqli noniusli o'lchov asboblaridan biridir. (1-rasm). Shtangentsirkul 25-30 sm uzunlikdagi jismlarning uzunligini 0,1 dan 0,05 mm gacha aniqlikda o'lhashga imkon beradi. Shtangentsirkul (1) qo'zgalmas barmoqli, (4) millimetrlri po`lat lineyka va chizg'ich bo'ylab (2) qo'zg'aluvchi barmoqli (3) noniusdan iboratdir. (1) va (2) barmoqlar bir-biriga tekkanda, chizg'ich va noniusning nollari mos kelishi kerak. M jismning uzunligini o'lhash uchun u barmoqlar orasiga qo'yilib (qattiq siqmasdan) (7) muruvvat yordamida mahkamlanadi. So'ngra esa chizgich va noniusdan olingan qiymatlar yordamida jism uzunligi (**L**) quyidagi formuladan topiladi:

$$L = \left(k + \frac{n}{10} \right) \text{mm} \quad (1)$$

k- mashtabli chizgich bo'linmalarining mm dagi butun soni, **n**- noniusning mashtabli chizgichidagi bo'linmalar soni.



1-rasm. Shtangensirkul: 1va 2 barmoqlar, 3- nonius, 4- pulat lineyka, 5- ichki diametrni o'lhash barmoqlari, 6- sterjen.

Shtangentsirkul yordamida nonius bo'limlarini aniqlash mashqni bajarish tartibi

Noniusdan foydalanib aniq o'lhashni amalga oshirish uchun bir necha geometrik figuralarni andozalarini o'lchaymiz. Shtangentsirkul yordamida silindning balandligi **h** va diametri **d** ni o'lchaymiz.

O'lhash quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Shtangentsirkulning (1) va (2) oyoqchalari o'rtafiga silindrni qo'yib (oyoqlar bilan sekin qisiladi) (7) vint bilan sekin mahkamlanadi.

2. Silindrning balandligi va diametri o'lchanadi, hisoblash (4) chizg'ichning butun soni nonius shkalasining **0** dan chap tomonidan olinadi, nonius shkalasining bo'linmalari (4) shkalasining xohlagan bo'limiga mos kelishi mumkin. Hisoblash (1) formula orqali bajariladi. Shtangentsirkul oyoqchalari orasida silindrni yengil aylantirib **3** marotaba o'lhash bajariladi. (1) formula orqali bajarilgan hisoblashlar natijalari 1-jadvalga yoziladi.

1- jadval

№	O'lchana -digan buyumlar	k	n	L	$\langle L \rangle$	ΔL	$\langle \Delta L \rangle$	$E = \frac{\langle \Delta L \rangle}{\langle L \rangle} 100\%$
1.	Shar diametri							
2.	Silindr diametri							
3	Silindr balandligi							

XULOSA

Demak, shtangentsirkulda o'lhash uchun $L = \left(k + \frac{n}{10} \right) mm$ formuladan foydalanamiz. Shtangensirkul yopiq turganida (4) chizg'ichning va (3) noniusning nollari ustma-ust tushadi. Uzunligi yoki qalinligi o'lchanayotgan buyumimiz qancha uzun bo`ls, noniusning noli chizg'ichning nolidan shuncha uzoqlashadi. Birinchi

topishimiz kerak bo`lgani bu formuladagi **k**. Buning uchun noniusning noliga qaraymiz, u po`lat chizg`ichning qaysi soniga to`g`ri kelgan bo`lsa shu sonni mm.da butun qismini yozib olamiz. Masalan noniusimizning noli chizg`ichdagi 22.3 sm.dan o`tgan ammo 22.4 sm.ga bormagan. Butun qismi 22.3 sm ya`ni, $k=223$ mm bo`ladi. Endi esa noniusdagi 0 dan 10 gacha bo`lgan raqamlarga qarab chiqamiz, qaysidir bittasi po`lat lineykadagi sonlarning ixtiyoriy biri bilan ustma-ust tushgan bo`ladi. Noniusdagi ana o`sha ustma ust tushgan son bu formuladagi **n**, masalan noniusdagi 7 raqami po`lat chizg`ichning qaysidir shtrixi bilan aynan ustma ust tushdi, demak $n=7$. Shunda buyumimizning uzunligi: $L = 223 + \frac{7}{10} = 223,7 \text{ mm}$ yoki 22,37 sm.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Remizov A.N. “Tibbiy va biologik fizika” 2005
2. Rahimova V., Bozorov E. Klinik dozimetriya fanining “Ionlovchi nurlanishlar va ularning asosiy xususiyatlari” nomli ma’ruza mashg’ulotini “Fishbone” metodini qo’llash orqali o’qitish //Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 2.
3. Xoziuevich B. E. et al. “AJURLI ARRA” METODI YORDAMIDA TALABALARGA “ASOSIY DOZIMETRIK KATTALIKLAR” MAVZUSINI TUSHUNTIRISH //E Conference Zone. – 2022. – S. 11-15.
4. Xoziuevich B. E. et al. “BESHINCHISI ORTIQCHA” METODI YORDAMIDA TALABALARGA “KLINIK DOZIMETRIYA UCHUN ASBOBLAR” MAVZUSINI TUSHUNTIRISH //pedagogs jurnali. – 2022. – T. 15. – №. 1. – S. 93-97